

## Mahzunlik Qasidasi<sup>1</sup>

Ey ko‘hna qit‘a, Yevropa, Biz seni sevamiz. Nega seni ko‘hna deb atashlariga aqlim yetmaydi, axir Misr va Mesopotamiya bilan qiyoslaganda sen hali yoshsan-ku.

Seni sevamiz, Yevropa. Oq tanlilar kabi senga soliq to‘laymiz, sening ob-havoingdek o‘zgaruvchan kayfiyatingga va rutubatli qishlaring sabab bo‘lgan D vitamini tanqisligiga chidaymiz. Biz seni sevamiz va uzun qishlaringdagi bu g‘amgin zulmatga hech qachon ko‘nika olmasligimizdan mahzun bo‘lamiz. Zero, sening sovuq Shimolingda, Oriy onalar va otalardan tug‘ilgan "asl" yevropalik do‘stlarimiz ham xuddi biz kabi tushkunlik va D vitamini yetishmasligidan azob chekadilar. Chunki evolyutsiya nazariyasiga ko‘ra, ular ham Afrikadan kelgan "homo sapiens"lardir. Sening haqiqiy tub aholing, muzlik davrida sovuqlariga bardosh berishga moslashgan Neandertallar esa allaqachon qirilib bitgan.

Biz seni sevamiz, Yevropa. Sen "qoloq uchinchi dunyo" deb ataydigan mamlakatlardan bag‘ringga kelganimizni inkor qilmaymiz. Men o‘zim Damashqdan keldim va sening yozuvchi-yu shoirlaringning qoliplari, stereotiplari va asossiz taxminlariga ko‘p duch keldim. O‘zimni feminist deb hisoblasam-da, Yaqin Sharqdagi ayollar ahvoli haqidagi doimiy, yuzaki savollaringdan bezib ketdim, to‘yib ketdim. Tan olaman, Suriyada ayollar saylov huquqini 1949-yilda qo‘lga kiritgan, ammo sening puling va bizning diktatorlarimizning maxfiy bank hisob raqamlari poytaxti bo‘lmish Shveysariyada ovoz berish huquqini ayollar faqat 1971-yilga kelibgina olgan. Albatta, bu ham hamma kantonlarda emas: Appenzell Innerrhoden kantoni ayollarga to‘liq saylov huquqini 1991-yildagina berdi, Xudo xayringni bersin!

Biz seni sevamiz, Yevropa. Sening quchog‘ingga qochib kelganimizda bizga bergan erkinligingni sevamiz va sen mehmonxonani tozalayotganingda gilam ostiga supurib yashirmoqchi bo‘lgan irqchiligingni ko‘rmaslikka olamiz.

Biz seni sevamiz, Yevropa, mustamlakachilik o‘tmishining sohibasi, tub aholining qotili, Hindistondan Kongogacha, Braziliyadan Yangi Zelandiyagacha bo‘lgan xalqlarning qonini so‘ruvchisi. Inkvizitsiya bekasi, ayollarni jodugarlikda ayblab olovda yoqqan zolim, qora tanlilarni Yangi Dunyoga tashigan qul savdosining xonimi, Janubiy Afrikadagi aparteidning yaratuvchisi, fashizm va natsizmning asoschisi, Yahudiylarni qirish uchun "yakuniy yechim"ni o‘ylab topgan ixtirochi! Aynan o‘sha "yakuniy yechim" mening Damashqdagi Yarmuk lagerida qochqin bo‘lib tug‘ilishimga sabab bo‘lgan. Chunki sening Oriy irqi sofligiga ishonuvchi oq tanli aholing amalga oshirgan Holokost uchun to‘lov, tovon va "yechim" sifatida mening vatanim Falastinni tortiq qilishga jur‘at etding.

Seni sevamiz, Yevropa. Sening pasportlaringni cho‘ntakda olib yuramiz, ular biz uchun eshiklarni xuddi sening o‘qlaring Fransuz inqilobi chorlagan erkinlikdan bahramand bo‘lishni istagan millionlab Jazoirliklar tanasini teshib o‘tganidek oson ochadi. Biz seni sevamiz, Yevropa.

---

<sup>1</sup> "Mahzunlik qasidasi" dastlab 2018-yilda Niderlandiyaning Gaaga shahridagi "Winternachten" xalqaro adabiyot festivali buyurtmasiga binoan yozilgan. Festival ma'muriyati Ghayath Almadhundan Shiller va Betxoven qalamiga mansub Yevropa ittifoqi madhiyasi bo‘lmish "Shodlik qasidasi"ni (Ode to Joy) qayta yozib berishni so‘ragan.

Sening san'atingni sevamiz va mustamlakachilik tarixingdan nafratlanamiz; teatringni sevamiz va konsentratsion lagerlaringdan nafratlanamiz; musiqangni sevamiz va bombalaring ovozidan nafratlanamiz; falsafangni sevamiz va Martin Xaydeggerdan nafratlanamiz; adabiyotingni sevamiz va orientalizmdan nafratlanamiz; she'riyatingni sevamiz va Ezra Paunddan nafratlanamiz; o'z chegaralaring ichidagi so'z erkinligini sevamiz va Islomofobiyangdan nafratlanamiz; sening yuksak sivilizatsiyangni, dunyoviyligingni, odil qonunlaring va o'z hududingdagi inson huquqlarini sevamiz va sening irqchiligingdan, ikkiyuzlamachiligingdan, kibrli qarashlaring hamda qonli tarixingdan nafratlanamiz.

Natsizmingni olda, bizga Immanuel Kantni ber.  
"Qora ko'ylaklilar"ingni olda, bizga Italyan vinosini ber.  
Jazoirdagi genotsidingni olda, bizga Bodlerni ber.  
Leopold II ni olda, bizga Rene Magrittni ber.  
Adolf Gitlerni olda, bizga Xanna Arendtni ber.  
Frankoni olda, bizga Servantesni ber.  
Narsalaringni yig'ishtirda, bizga o'zimiznikini qaytarib ber.

Ghayath Almadhoun  
Translated by Nafisa Abdusattarova